

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

JOMIY VA NAVOIY IJODINING ISTIQLOL YILLARIDAGI TALQINLARI

Baxtiyor FAYZULLOYEV

akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xo'jand DU dotsenti,
filologiya fanlari nomzodi (Tojikiston)
el.pochta: b.fayz.1961@mail.ru

DOI <https://doi.org/10.5281/zenodo.14806369>

Annotatsiya: Maqolada professor Abudusalom Abduqodirovning mustaqillik yillarida Jomiy va Navoiy ijodiga doir amalga oshirgan turkum ilmiy maqolalariga e'tibor qaratildi. Olimning ishlarida ikki mutafakkir shoirning o'zaro adabiy-ilmiy hamkorliklari masalasi qiyosiy tarzda tadqiq etilib, muhim ilmiy xulosalarga kelganini uning "Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy" monografiyasi asosida ko'rsatib berildi. Shu bilan birga, har ikki shoirning badiiy mahorati, tasavvufga doir nazariy qarashlari ham yuqoridagi manbaga tayangan holda yoritildi.

Kalit so'zlar: an'ana, tarjima, erkin tarjima, matn, tahlil va talqin, she'riy janrlar, qiyosiy tahlil, tatabbu, mahorat, tasavvuf, g'azal, qasida.

Аннотация: В статье уделено внимание циклу научных статей профессора Абдусалама Абдукадировва о творчестве Джамии и Навои в годы независимости. В трудах ученого в сравнительном плане изучен вопрос литературно – научного сотрудничества двух поэтов – мыслителей и показано, что он пришел к важным научным выводам на основе своей монографии "Мавлона Абдурахман Джамии и Амир Алишер Навои". При этом на основе приведенного источника был освещены художественные способности обоих поэтов и их теоретические взгляды на суфизм.

Ключевые слова: традиция, перевод, свободный перевод, текст, анализ и интерпретация, поэтические жанры, сравнительный анализ, татаббу, мастерство, суфизм, газель, касыда.

Annotation: The article focuses on a series of scientific articles by Professor Abudusalom Abdukadirov on the works of Jami and Navoi in the years of independence. The scholar's works comparatively examine the issue of literary and scientific cooperation between the two poets and thinkers and show that he came to important scientific conclusions based on his monograph "Mavlona Abdurakhman Jami and Amir Alisher Navoi". At the same time, based on the cited source, the artistic abilities of both poets and their theoretical views on Sufism were highlighted.

Key words: tradition, translation, free translation, text, analysis and interpretation, anthology, poetic genres, tatabbu, skill, sufism, ghazal, poem.

Istiqlol davri o'ziga xos yangi milliy mafkurani yuzaga keltirdi. Hayotning barcha jabhalarida islohotlar davri boshlandi. Jumladan, uzoq asrlik tarixga ega bo'lgan adabiy merosimizga ham sog'lom nazar bilan qarash kayfiyati vujudga keldi. Umuman olganda, mumtoz adabiyotni o'rganish, tadqiq va targ'ub qilish bo'yicha yangicha yondoshuvlar ustuvorlashib jiddiy ilmiy tadqiqot ishlari yuzaga kela boshladi. Xususan, mustaqillik davri jomiyshunosligi va navoiyshunosligi sohasida amalga oshirilgan izlanishlar yangicha yondashuv va ilmiy qarashlar bilan ajralib turadi.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Ta'kidlash joizki, istiqbolga qadar ham taniqli olimlar tomonidan ikki mutafakkir shoir ijodi bo'yicha salmoqli tadqiqotlar amalga oshirilganini e'tirof etish zarur. Shu bilan birga, bu olimlarning kuzatishlarida ham sho'rolar davri mafkurasi o'z izini qoldirgan edi. Mumtoz adabiyotimizdagi mavjud islomiy hamda tasavvufiy ruhdagi asarlarini o'rganish masalasi ularning kuzatishlaridan bir qadar chetda qolganligi ham tabiiy hol edi, albatta.

Shu narsani alohida qayd etishni lozimki, Xo'jand shahrida mana yarim asrdan ortiq vaqt o'tdiki, o'zbek adabiyotshunosligi maktabi ham amal qilib kelmoqda. Ushbu maktabning tamal toshi taniqli o'zbek adabiyotshunos olimlari tomonidan qo'yilganligini ham e'tirof etish adolatdandir. Mazkur ilmiy maktabda kamolga yetgan olimlardan biri taniqli navoiyshunos, tasavvufshunos, o'zbek va tojik adabiy aloqalari rivojiga munosib hissa qo'shgan o'zbek va tojik mumtoz adabiyotlari tadqiqotchisi hamda targ'ibotchisi, filologiya fanlari doktori, professor Abdusalom Abduqodirovni zahmatkash olim sifatida Tojikistonda, shu bilan birga O'zbekistondagi ilm ahli ham yaxshi bilishadi. Buning birgina dalili 2018-yilning 9-fevralida Navoiy shahrida Alisher Navoiy hayoti va ijodiga bag'ishlab o'tkazilgan nufuzli xalqaro anjumanda Abdusalom Abduqodirovga Navoiy shahrining faxriy fuqaroligini berilishi anjuman ishtirokchilarida o'zgacha taassurot qoldirgan edi.

Ushbu kuzatishimizda professor A.Abduqodirovning mustaqillik yillarida Abdurahmon Jomiy hamda Alisher Navoiy hayoti va ijodiga doir amalga oshirgan ayrim ilmiy ishlariga e'tibor qaratishdan iborat. Ma'lumki, 2014-yilda buyuk tojik shoiri va mutafakkiri Mavlono Abdurahmon Jomiy tavalludining 600 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan ustoz Abdusalom Abduqodirovning ikki mumtoz shoirlar hayoti va ijodi, ularning o'zaro adabiy-ilmiy hamkorliklari yoritilgan 208 sahifadan iborat monografiyasi yuzaga keldi [1,208].

Monografiya muqaddima, 5 bob, har bir bob 3 fasldan iborat bo'lib, jami 15 faslni o'z ichiga olgan. Shuningdek, mumtoz asarlarda Jomiy hamda Navoiyga berilgan ta'riflar va taniqli shaxslar tomonidan ularning faoliyatiga berilgan baholar, xulosa hamda adabiyotlar ro'yxatidan tashkil topgan. Shu bilan birga asarda tojik va o'zbek adabiy aloqalari tarixi, Jomiy va Navoiyning ustoz va shogirdlik, do'stlik munosabatlari, adabiy-ilmiy hamkorliklari hamda ikki xalq adabiyoti taraqqiyoti yo'lidagi xizmatlari manbalar asosida ko'rsatib berilganligi bilan muhim qimmat kasb etgan. Shuning uchun ham mazkur monografiya o'zining ilmiy-nazariy ahamiyati bilan mutaxassislar tomonidan e'tirof etilganiga ham o'n yil bo'ldi.

Monografiyaning birinchi bobida adabiy-ilmiy hamkorliklarga e'tibor qaratilgan bo'lib, birinchi faslida muallif Navoiyning Jomiy huzurida olgan adabiy-ilmiy va tasavvuf ilmiga doir olgan saboqlari haqida ma'lumotlar berilgan. Darhaqiqat, bu

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

masalaga taniqli tojik va o'zbek olimlari A.Afsahzod, A.Hayitmedov, E.Shodiyevlar ham o'z vaqtida e'tibor qaratganini muallif alohida ta'kidlab, ularning fikrlarini davom ettirib, quyidagi muhim xulosani bayon qiladi: "O'rni kelganda qayd etib o'tish lozimki, Jomiy garchand murshidlik poyasiga o'tirgan bo'lsa-da, uning pir sifatidagi faoliyati boshqa shu mavqedagi kishilar intilishidan farq qiladi. Avvalo, Jomiy o'z atrofiga muridlar to'plab, shayxlik bilan shug'ullanishni istamagan. Ikkinchidan, sof amaliyotchi so'fiylar singari ish tutmagan. Aniqroq aytganda, tasavvuf qoidalariga qattiq rioya qilib, hamma narsadan voz kechib, uzlatga chekingan holda riyozat bilan shug'ullanmagan. Hatto piri Mavlono Sa'diddin vafotidan so'ng uning Hirot chetidagi xiyobon boshida joylashgan maqbara-qabri yoniga ko'chib borganidan so'ng ham jamiyatdan, ilm, adabiyot, san'at ahli va do'stlaridan aloqasini uzmagani. Uchinchidan, Jomiy murshidlik davrida ko'proq tasavvuf nazariyotchisi sifatida faoliyat ko'rsatgan bo'lsa-da, lekin odamlarni so'fiylikka keng targ'ib etmagan"[1,22-23].

Monografiyaning birinchi faslida muallif manbalarga tayanib, Navoiyning Jomiy huzurida bo'lib, undan adabiyotning turli sohalari bo'yicha olgan saboqlari ham izchillik bilan yoritib berilgan. Ayniqsa, tasavvufning naqshbandiylik tariqatini ham ustoz Jomiyning bevosita rahbarligida o'rganganligi haqidagi ma'lumotlar ham tadqiqotdagi asosiy nuqtalardan biri deyish mumkin.

Shuningdek, professor A.Abdugodirov masalani yanada kengroq rejada yoritish maqsadida ustoz Jomiyning tasavvufga doir nazariy qarshlari yoritilgan ilmiy risolalar bilangina kifoyalanib qolmasdan Jomiyning badiiy asarlarida ham tasavvufga doir berilgan masalalarning badiiy talqiniga ham alohida e'tibor qaratadi. Shunday mazmundagi she'riy matnlarni olimning o'zi tojik tilidan o'zbek tiliga mahorat bilan tarjima qilib, matnlar ostiga "tarjima bizniki", degan yozuvni keltirib o'tadiki, bu hol masalani yanada yaxshiroq anglashga va tushunib olishga yordam beradi.

Muallifning fikricha, Abdurahmon Jomiyning "Haft avrang"dan joy olgan "Suhbat ul-abror" ("Yaxshilarning tasbehi") masnaviysi to'laligicha falsafiy-axloqiy mazmundagi asar bo'lib, uni Navoiy qunt bilan sinchiklab o'rganganishining sababi mazkur asarda so'fiylik, tasavvuf maqomati va ahvoli naqshbandiylik qoidalari mukammal badiiy talqin etilganligi bilan xarakterli. Ma'lumki, mazkur asar 40 bobdan iborat bo'lib, unda Jomiy tasavvufga doir ko'plab masalalar qatorida so'fiylik va so'fiylar haqida ham alohida to'xtalib, hattoki, asarning bir bobini to'laligicha shu masalaga bag'ishlagani ta'kidlanib, mutafakkir shoirning so'fiy shaxsiyatiga doir quyidagi fikrlari keltirilgan:

Суфй он аст, ки аз худ растаст,

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Аз нако‘ частаву аз бад растаст.
Зодаи кавну зи кавн озода,
Банди ҳастиву зи ҳастӣ содда...
Дар макон неву макон аз вай пур,
Дар замон неву замон аз вай пур [Ҷомӣ, 1988: 43].

Mazmuni:

So‘fiy ulki, o‘zligidan ozoddir,
Yaxshidan uzoqda-yu, yomonga yotdir.
Dunyo farzandi-yu, ozod olamdan,
Borliqqa bandi-yu, qo‘l tortgan undan.
Makonda yo‘g‘-u makon undan to‘la,
Zamonda yo‘g‘-u zamon undan to‘la

(A.Abduqodirov tarjiması).

Shuningdek, mazkur faslda ikki ulug‘ shoirning bir nechta tasavvuf namoyandalari faoliyatiga munosabatlari ham manbalar asosida yoritilib, muhim ilmiy xulosalar taqdim qilingani bilan boshqa ishlardan farqlanib turadi.

Muallif monografiyaning keyingi fasllaridan birida Jomiy va Navoiyning tatabbunavislik faoliyatiga ham nazar tashlaydi. Ma‘lumki, Sharq adabiyotida tatabbunavislik muhim o‘rin tutadi. Tatabbu arabcha so‘z bo‘lib, izdoshlik qilish demakdir. Tatabbu yozish ilgari o‘tgan yoki katta zamondosh bo‘lgan mashhur shoirning badiiy mukammal asarlariga ergashib yangi asar yaratishni anglatadi. Shu jarayonda tatabbu yozgan shoir o‘z mahoratini ham namoyish etganligi sababli tatabbunavislik badiiy ijodda mahorat maktabi maqomiga ham ega bo‘lgan. Shu nuqtai nazardan Navoiy o‘z ijodida tatabbunavislik an‘anasini rivojlanirib, uni alohida adabiy yo‘nalish darajasiga olib chiqa olganligi o‘zbek mumtoz adabiyotidagi muhim yangiliklardan biri bo‘lgan [17,10].

Yana shu narsa ma‘lumki, Alisher Navoiyning tojikcha she‘rlarining katta qismini tatabbu usulida yaratgan. Uning “Devoni Foni” asarida Sa‘diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy, Kotibiy, Mir Shohiy, Kamol Xo‘jandiy, Jomiy va boshqa tojik shoirlari g‘azallariga ergashib yaratilgan ijod namunalari tatabbu asarlar sirasiga kiradi. Buni mutafakkir shoirning o‘zi devonidagi har bir g‘azalini qaysi shoirga tatabbu ekanini alohida qayd etib boradiki, bu muhim ahamiyatga ega bo‘lgan ma‘lumotlardan hisoblanadi.

Amir Alisher Navoiy boshqa ustoz salaf shoirlar qatorida Mavlono Abdurahmon Jomiy an‘analarini ham izchil davom ettirib, uning 100 dan ortiq g‘azallariga tatabbu bog‘lagan. Professor A.Abduqodirovning keyingi yillardagi kuzatishicha, Navoiyning 50 dan ortiq she‘rlari tojik tilida yaratilgan bo‘lib, ular “Devoni Foni”dan o‘rin

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

olgan tatabbu g'azallardir. Yana 50 ortig'i esa uning "Xazoyin ul maoniy" devonidan joy olgan o'zbek tilidagi tatabbu g'azallar bo'lib, ular ustoz Jomiyga ergashib, yaratgani qayd etilgan.

Adabiyotshunoslikda Navoiyning Jomiy g'azallariga bog'lagan tojik tilidagi tatabbularining ma'lum bir qismi Alisher Shomuhamedov tomonidan tadqiq etilgan [18,123]. Xuddi shu masalada ustoz A.Abduqodirov quyidagi fikrni bildiradi: "Ammo Navoiyning Jomiy g'azallariga bog'langan o'zbekcha tatabbu g'azallari hanuzgacha tadqiqotga tortilmagan bo'lib, navoiyshunoslikdagi bu muhim masala alohida tadqiq etishni taqozo qiladi" [1,48]. Demak, yuqorida ta'kidlangan xulosaga e'tibor qaratib, mazkur masalada alohida tadqiqot ishlari amalga oshirilsa, jomiyshunoslik hamda navoiyshunoslik sahifalari yangi ilmiy xulosalar bilan boyigan bo'lar edi.

Jomiyning tasavvufga doir fikrlari badiiy talqin qilingan "Чанд савол, эй писар, кӣ чист тасаввуф...", - deb boshlangan tojik tilidagi g'azaliga Alisher Navoiyning "Birovga musallam tariqi tasavvuf..." deb boshlangan o'zbek tilida yozgan tatabbu g'azali shoir ijodida muhim o'rin tutadi. Navoiyning mazkur g'azali taniqli o'zbek adabiyotshunoslari Ibrohim Haqqul va Sultomurod Olimning ilmiy tadqiqotlarida muayyan darajada tahlil qilingan.

Professor Abdusalom Abduqodirovning fikricha: "Ammo haligacha Jomiy g'azali va unga Navoiyning tatabbusi qiyosiy tarzda tahlil etilmagan..." [1,51]. Monografiya muallifi shu masalaga e'tibor qaratilib, yuqoridagi har ikki g'azalni ham to'liq qiyoslab ilm ahliga o'zining yangi xulosalarni taqdim qiladiki, bu muhim ilmiy qimmatga ega ishlar sirasiga kiradi.

Ustoz A.Abduqodirovning ushbu kuzatishida 7 bayt, 14 misradan tashkil topgan har ikkala g'azal baytma-bayt boshdan oxir qiyoslanib, ularning o'xshash hamda farqli jihatlari dalillar asosida ko'rsatib berilgan. Shunisi muhimki, har ikki g'azal ham bir mavzu doirasida bo'lsada, ulardagi tasavvufga doir nazariy masalalar o'ziga xos ko'rinishda yoritilgan. Qiyosiy tahlilda dastlab ikki g'azaldagi bir qator murakkab so'z va tasavvufiy atamalarga e'tibor qaratilib, ularning ma'nolari tushuntirib borilgan. Shuningdek, ikkala shoir tomonidan mahorat bilan qo'llangan tanosib, takrir, tazod, tavz', talmeh, irsoli masal, istifhom, murojaat, qaytariq kabi she'riy san'atlar ham zukkolik bilan ko'rsatib o'tilgan. Hattoki, Navoiy qofiya so'zlarini tanlashda ham Jomiyga payravlik qilganligi misollar bilan asoslangan. Muallif kuzatishlari so'ngida fikrlarni umumlashtirib, to'rtta muhim xulosani bildiradiki, bular monografiyaning ilmiy salomog'ini ta'minlashga xizmat qiladi.

Professor A.Abduqodirovning yuqoridagi kuzatishida "Navoiyning Jomiy g'azaliga tatabbusi" tarzda masala qo'yilib, qiyosiy tahlil qilingan bo'lsa, ishning

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

keyingi faslda esa “Jomiyning Navoiy g‘azaliga tatabbusi”, masalasi qo‘yilgan. O‘rni kelganda ta’kidlash lozimki, Navoiy o‘zining Jomiy xotirasiga bag‘ishlab yozgan “Xamsat ul-mutahayyirin” asarida ustoz Jomiy Navoiyning “Koshki” radifdagi asariga tatabbu bog‘laganini eslatib o‘tgan [11,71]. Muallif monografiyada Jomiyning Navoiy g‘azaliga yozgan tatabbusi haqida ham shu kunga qadar biror munosabat bildirilmaganini qayd etadi. Unda ustoz hamda shogirdning to‘qqiz bayt, o‘n sakkiz misradan iborat “koshki” radifda yozilgan g‘azallari yuqoridagi mezonlar asosida mukammal tarzda tahlil qilingani bilan xarakterlidir. Ayniqsa, tahlil so‘ngidagi muallifning xulosalari har ikki g‘azalni tushunishda “kalit” vazifasini bajarishi, shubhasiz.

Professor A.Abduqodirovning ilmiy kuzatishlari Alisher Navoiy asarlaridagi tasavvufiy masalalar talqini tojik mumtoz shoirlarining asarlari bilan qiyosiy tarzda tadqiq etilganligi bilan tasavvuf hamda adabiy aloqalarga doir kuzatishlardan jiddiy farqi kuzatiladiki, bu holni olimning yutuqlari sifatida qabul qilish maqsadga muvofiqdir. Monografiyaning ikkinchi bobda ham qiyosiy tahlil yo‘lidan borgan muallif Jomiy va Navoiyning dostonlariga nazar tashlaydi. Shu nuqtai nazardan tadqiqotchining “Jomiy va Navoiy “Layli va Majnunlari”ga doir kuzatishi ayniqsa e’tiborga loyiq ishlar sirasiga kiradi [1,72-81]. Sharq dostonchiligida eng ko‘p qalamga olingan mavzu – Layli va Majnunning fojiali muhabbati tasviri hisoblanadi. Bu mavzuda turli tillarda yuzdan ortiq asar yozilganini taniqli tojik olimi alohida qayd etgan [5,3-4].

Navoiyning dostoni ustози Jomiyning “Layli va Majnun” dostoni bilan bir vaqtda, ya’ni 1484-yilda yozilgan bo‘lib, mavzu jihatdan bir xil bo‘lgan bu ikkala doston ham original ijod namunalari hisoblanadi. Monografiyada mazkur dostonlar ham hozirgacha bir-biri bilan qiyoslanmagani ta’kidlangan. A.Abduqodirov bu ikki dostonni bobma-bob qiyosilab, muhim yangi ilmiy xulosalarni bayon qiladi. Dostonlarning mushtarak jihatlari hamda farqli tomonlarini tahlil jarayonida ko‘rsatib beradiki, olimning bu xulosalari mustaqillik davri navoiyshunsligi sahifalaridan munosib o‘rin olishga arziqli ma’lumotlar deyish mumkin.

Mazkur kuzatishda ham muhim jihatlar talaygina bo‘lib, shulardan biri ikki dostondagi asosiy qahramonlar Layli hamda Majnun vafotlari bilan bog‘liq tasvirlar ham bir-biridan tubdan farq qilishi dostonlar matni asosida talqin etilgan. Navoiy dostonida tasavvufiy-so‘fiyona talqin (Layli va Majnunning bir kafanga va bir go‘rga qo‘yilish voqeasi) yetakchilik qilsa, Jomiy asarida esa haqiqiy ishqni ko‘rsatish emas, balki dunyoviy ishqni ko‘rsatish yetakchi tamoyil ekanligi dalillar bilan o‘z isbotini topgan. Shuningdek, Navoiy ishqning badiiy tadqiniga alohida e’tibor qaratgan bo‘lsa, ustози Jomiy dostonida esa bu talqin berilmagani ma’lum

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

bo'ladi. Umuman, kuzatish jarayonida shu kabi ko'plab xarakterli nuqtalar izchillik bilan yoritib berilgan.

Muallif qiyoslash usuliga doir an'anani ishning keyingi bob hamda fasllarida ham izchillik bilan davom ettirib, ikki mutafakkir shoirning boshqa dostonlarini ham tahlilga tortadi. Ulardan yana biri "Ustoz va shogird jangnomalari" deb nomlanib, unda Jomiy hazratlarining "Xradnomai Iskandariy" ("Iskandarning donishmandlik kitobi") dostoniga Navoiyning tatabbu sifatida yaratgan "Saddi Iskandariy" ("Iskandar devori") dostoni atroflicha qiyoslanib, muhim yangi ilmiy xulosalar ilgari surilgan. Muallif: "Navoiy o'z asarini yaratishda Jomiyga ergashgan, uning an'alarini davom ettirgan. Shunga qaramay, Navoiy Jomiyga taqlid qilmagan, balki ustozni an'alariga ijodiy yondoshib, an'anaviy mavzuni yangilagan va mustaqil hamda to'raligicha yangi asar yaratgan", degan o'rinli xulosa ilgari surilgan [1,82].

Navbatdagi fasllarning birida ikki shoirning qasidanavislik mahoratlari ham qiyosiy yo'sinda o'z yechimini topa olgan. Unda Jomiyning "Lujjat ul asror" ("Sirlar dengizining tubi") qasidasi Navoiyning tojik tilida yaratilgan "Tuhfat ul afkor" ("Fikrlar tuhfası") tatabbu qasidasi bilan qiyoslanib, ularning ikkalasi ham bir xil mutaqoribi musammani mahzuf (fauvlun fauylun fauylun faul V - - V - - V - - V ~) vaznda hamda bir xil radifda yozilgani, ularda "ast" so'zining radif bo'lib kelgani hattoki, har ikki qasidadagi qofiyadosh so'larda "r" harfi raviy bo'lib, qofiya so'zlarida ohangdoshlikni yaratishga xizmat qilganligiga ham e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tahlilda qasidalarining shakl va mazmun jihatdan farqli jihatlari birmabir ko'rsatilib, ularning hajm jihatdan farqlanishi ham ko'rsatilgan. Bundan tashqari, Jomiy qasidasi boshdan-oxir axloqiy mazmunda yaratilgan bo'lsa, Navoiy qasidasida ham axloqiy mazmun bilan birga tasavvufiy-irfoniy mazmunga ham ega ekani, agar Jomiy qasidasining markaziga komil musulmonni tarbiyalash masalasi qo'yilgan bo'lsa, Navoiy asarida esa tasavvufiy faqrlikka erishish yo'llarini targ'ub etilgani kabi bir qator farqli jihatlar misollar asosida o'z isbotini topganligi bilan muhim ahamiyat kasb etgan.

Shuningdek, professor A.Abduqodirov kuzatishlari davomida yana bir muhim masalaga e'tibor qaratadiki, bu g'oyat ibratli nuqtalardan yana biri deyishga imkon beradi. Unda Navoiyning 1495-yilda yozilgan tasavvufga doir saf nazariy mazmundagi "Nasoyim ul-muhabbat min shamoyim ul-futuvvat" ("Ulug'lik xushbo'yliklarini taratuvchi sevgi shabbodalari") asarining yaratilishi ulug' tojik shoiri va mutafakkiri Nuriddin Abdurahmon Jomiyning (1414-1492) "Nafohat ul-uns min hazorat ul-quds" ("Pok zotlar huzuridan esgan do'stlikning xush ishlari") qomusiy asari bilan bog'liq ekaniga e'tibor qaratadi. Shunisi xarakterliki, Navoiy ustozining mazkur asarini o'zbek o'quvchlariga mo'ljallab tarjima qilgan. Bu asar

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

shunchaki so'zma-so'z tarjima bo'lmay, balki erkin usuldagi tarjima maqomiga ega bo'lib, Navoiy ushbu asarini ham yangilik va qo'shimchalar bilan boyta olgani haqida navoiyshunoslikda o'rinli fikrlar bildirilgan.

Ammo shu vaqtgacha sof tasavvufiy mazmundagi bu ikki asar bir-biriga qiyos qilinmaganiga ham A.Abduqodirov e'tibor qaratadi. Birinchi bo'lib, o'z kuzatishini ushbu asarlarning muqaddima qismlaridan boshlaydi. Muqaddimalardagi tasavvufga doir bir qator muhim va murakkab masalalarni zukkolarcha yoritishga harakat qiladi. Ulardagi mushtarak hamda farqli jihatlarini ham xolislik bilan ko'rsatib beradi. Ta'kidlash joizki, olimning bu kabi ilmiy xulosalari Jomiy va Navoiyning tasavvufga doir qarashlarini tadqiq etishda ishonchli manbalar sifatida xizmat qilishi, shubhasiz.

Umuman olganda, tojik va o'zbek adabiy aloqalari ikki shoirning ustoz va shogirdlik, o'zaro do'stlik aloqalari hamda hamkorliklari yoritilgan mazkur tadqiqot ishida yana boshqa muhim masalalarga ham e'tibor qaratilgan bo'lib, ularning hammasini bir maqola doirasida yoritib berishning imkoni yo'q, albatta. Yuqoridagi fikrlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Mustaqillik yillarida o'zbek va tojik mumtoz adabiyotlariga doir amalga oshirilgan tadqiqotlar orasida Jomiy hamda Navoiy asarlarining yangicha talqin hamda tahlillarining yuzaga kelishida hamda takomilida professor A.Abduqodirovning kuzatishlari alohida sahifani tashkil etadi.

2. Shuningdek, olimning Mavlono Abdurahmon Jomiy va Amir Alisher Navoiy ijodiga doir kuzatishlarining asosida tojik xalqining: "Бинед муқоиса кунед ва хулоса бароред" degan purma'no hikmati asosiy tayanch mezon bo'lib, xizmat qilgani ma'lum bo'ladi. Darhaqiqat, har bir narsada qiyoslash muhim o'lchov sanalib, ilmda ham qiyosiy tahlil o'ziga xos ustivor usullardan biri ekanligini yuqoridagi fikrlar yana bir bor tasdiqlaydi.

3. Mavlono Nuriddin Abdurahmon Jomiy jahon adabiyoti, madaniyati va ilmining tengsiz namoyandalaridan biri sifatida umrining oxirigacha o'z faoliyatini inson kamolati uchun yo'naltira oldi. Uning shogirdi, do'sti, muridi va farzandi darajasida yaqin bo'lgan ulug' o'zbek shoiri va mutafakkiri Amir Alisher Navoiy siymosida bu orzu haqiqatga aylandi.

4. Endi bugungi navoiyshunoslar avlodi oldidagi muhim vazifalardan yana biri Amir Alisher Navoiyni ustozlarga ergashib, ularning yo'lida yaratgan har bir durdona asarlarini qanday bo'lsa, shu holatda yangi mezonlar asosida keng rejada o'rganish, tadqiq va targ'ub etishdir. Bunday salmoqli ishlar uchinchi renessans poydevorini yaratishga dadil qadamlar qo'yilgan Yangi O'zbekiston dasturidan joy olgan muhim vazifalardan biri deyish mumkin.

ALISHER NAVOIY ADABIY VA ILMIY MEROSINI O'RGANISH MASALALARI

xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

Adabiyotlar ro'yxati

(Использованная литература / References):

1. Абдукодиров А. Мавлоно Абдурахмон Жомий ва Амир Алишер Навоий. Монграфия. – Хожанд: “Нури маърифат”, 2014. – 208 б.
2. Абдукодиров А. Жомий “Нафахот ул-унс”и ва Навоий “ Насойим ул-муҳаббат”ининг мукаддималари // Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари. – Хожанд: “Хуросон”, 2007. -76-82 б.
3. Абдукодиров А. Жомий ва Навоий “Лайли ва Мажнун”ларининг қиёсий таҳлили // Амир Алишер Навоий ва тожик мумтоз шоирлари. – Хўжанд: “Хуросон”, 2007, 66-76 –бетлар.
4. Абдукодиров А. Амир Алишер Навоий (Ҳаёти ва ижоди) Тўлдирилган ва қайта ишланган тўртинчи нашри. – Тошкент: “BAYOZ”, 2022, - 228 б.
5. Асадуллоев С. “Лайли и Меджнун” в фарсиязычной литературе. -Душанбе: Дониш, 1981.
6. Афсаҳзод А. Рўзгор ва осори Абдурахмони Ҷомӣ.-Душанбе: Дониш, 1980.
7. Афсаҳзод А. Таҳаввули афкори Абдурахмони Ҷомӣ. -Душанбе:Дониш, 1981.
8. Жомий ва ўзбек адабиёти. Халқаро илмий анжуман материаллари. – Тошкент: “Мовароуннаҳр”, 2005. -120-б.
9. Ҷомӣ А. Осор, дар 8 ҷилд, ҷилди 2. – Душанбе: Ирфон, 1987. – 220 С.
10. Мавлоно Нуриддин Абдурахмони Ҷомӣ. Нафахот – ул- унс мин ҳазарот-ил-қудс. Пажоҳишгоҳи фарҳанги форсӣ-тоҷикии Сафорати Ҷумҳурии Ислонии Эрон дар Тоҷикистон. – Душанбе, 2013, - С. 865.
11. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами, 20 томлик. 15 том. –Тошкент:Фан, 1999. - 7- 83 б.
12. Навоий А. МАТ (Мукамал асарлар тўплами), 20 томлик, 16- том. -Тошкент: Фан, 2000, 26- бет.
13. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами, 20 томлик. 17- том. –Тошкент:Фан, 2001. - 520 б.
14. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами, 20 томлик. 9- том. –Тошкент:Фан, 1992. - 356 б.
15. Навоий А. Мукамал асарлар тўплами, 20 томлик. 11-том. –Тошкент: Фан, 1993. - 640 б.
16. Олим С. Нақшбанд ва Навоий. -Тошкент: Ўқитувчи, 1996. – 195 б.
17. Файзуллоев Б. Ўзбек шеърятита татаббу тарихи ва маҳорат масалалари.(XVII-XIX асрлар ва XX аср бошлари ғазалчилиги асосида) Монография.-Тошкент: “TAMADDUN“, 2021. – 148 б.
18. Шамухамедов А.Ш. Традиция татаббу в творчестве Алишера Навои (напремери татаббуат Фани на газели Джами). -Ташкент: Фан, 1984.123 б.
19. Шодиев Э. Алишер Навоий ва форс - тожик адиблари. – Тошкент:Ўқитувчи, 1989. - 180 б.
20. Ҳайитметов А., Мирзааҳмедова М. Алишер Навоийнинг ҳаёт йули // Ўзбек адабиёти тарихи, 5 томлик, 2-том. – Тошкент: Фан, 1977.
21. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфклари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1997.
22. Ҳаққул И. Тасаввуф ва шеърят.-Тошкент: Адабиёт ва санъат,1991.-184 б.